

O'QUVCHINING O'QUV FAOLIYATI MOTIVLARINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Xoliqova Nigina Mirzobotirovna

*Buxoro viloyati Buxoro tuman 8-umumiy
o'rta ta'lim maktabi amaliyotchi psixolog*

Maktab o'quvchisining o'quv faoliyatni bilim olishga, izlanishga bo'lgan qiziqishini yaxshilashga qaratilgan yangi metodlarni ishlab chiqish va shu asosda o'quvchilarning faolligini oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish davr talabidir. O'quv jarayonini psixologik boshqarish: o'quvchining o'quv faoliyati motivlarini aniqlash va ular orqali o'quv faoliyatiga ehtiyoj uyg'otish pedodging asosiy tashkiliy vazifasidir. Hozirgi davr o'quvchi shaxsini faollashtirish tadqiqotchilariga tizimli yondashuvli amaliyotni taqazo qilmoqda. Maktab o'quvchilarinig asosiy faoliyati bo'lgan o'qisho'rganish ya'ni ta'lim olish faoliyatini yaxshilash, maktab o'quvchisining faol qilib intellektual saloxiyatini oshirish, kelajakka bo'lgan ishonch hissini shakklantirish pedagog va psixologlar zimmasidagi ma'sulitni oshirishni talab qiladi. Psixologik ma'lumotlarga ko'ra, har qanday faoliyat muayyan motivlar ta'sirida vujudga keladi va yetarli shart – sharoitlar yaratilgandagina amalga oshadi. Shuning uchun ham ta'lim jarayonida o'zlashtirish, egallash va o'rganishni amalga oshirishni ta'minlash uchun o'quvchilarda o'quv motivlari mavjud bo'lishi shart. Bilish motivlari shaxsnинг (sub'ektning) gnoseologik maqsad sari, ya'ni bilish maqsadini qaror toptirishga, bilim va ko'nikmalarni egallashga yo'naltiriladi. Odatda bunday turdosh motivlar nazariy ma'lumotlarning ko'rsatishicha, tashqi va ichki nomlar bilan atalib, muayyan toifani yuzaga keltiradi.

O'qish faoliyatining motivlari sifatida quyidagilarni taxlil qilish lozim

- Tashqi motivlar
- Ichki motivlar

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar bilan ishslashda quyidagi tashqi va ichki motivlarning o'quvchiga ta'sir qilish mexanizmlarini taxlil qilish zarur. Tashqi motivlarga- jazo va rag'batlantirish, guruhning bosimi, talab va qo'rqtish, kelgusidagi yaxshi niyatlar kiradi. Ichki motivlarga- bilimlarga bo'lgan qiziqish, madaniy darajani oshirishga bo'lgan intilish, o'quvchiningning ustakovkalari, e'tiqod va dunyoqarashlari misol bo'la oladi. Tashqi motivlar jazolash va taqdirlash, xavf-xatar va talab qilish, guruhiy tazyiq, ezgu niyat, orzu-istak kabi qo'zg'atuvchilar ta'sirida vujudga keladi. Bularning barchasi bevosita o'quv maqsadga nisbatan tashqi omillar, sabablar bo'lib hisoblanadi. Mazkur holatda bilimlar va malakalar o'ta muhimroq boshqa, hukmron (yetakchi) maqsadlarni amalga oshirishni ta'minlash vazifasini bajaradi (yoqimsiz holat va kechinmalar yoki noxush, noqulay vaziyatdan qochish,

ijtimoiy yoki shaxsiy muvaffaqiyatga erishish; muvaqqat erishuv muddaosi mavjudligi va hokazo. Bu turdag'i yoki jinsdagi tashqi motivlar ta'sirida ta'lim jarayonida bilim va ko'nikmalarni egallash (o'zlashtirish)da qiyinchiliklar kelib chiqadi va ular asosiy maqsadni amalg'a oshirishga to'sqinlik qiladi. Masalan, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarining asosiy maqsadi o'qish emas, balki ko'proq o'yin faoliyatiga moyillikdir. Mazkur vaziyatda o'qituvchining o'qishga ularni jalb qilish niyati o'quvchilarining o'yin maqsadining ushalishiga halaqit berishi mumkin, lekin izoh talab dalillar yetishmaydi.

Motivlarning navbatdagi toifasiga, yani ichki motivlar turkumiga individual xususiyatlari motivlar kiradiki, ular o'quvchi shaxsida o'qishga nisbatan individual maqsadni ro'yobga chiqaruvchi qo'zg'alish negizida paydo bo'ladi. Chunonchi, bilishga nisbatan qiziqishning vujudga kelishi shaxsning ma'naviy (madaniy) darajasini oshirish uchun undagi intilishlarning yetilishidir. Bunga o'xshash motivlarning ta'sirida o'quv jarayonida nizoli, ziddiyatli holatlar (vaziyatlar) yuzaga kelmaydi. Ta'lim jarayonida bunday vaziyatlarni yaratish o'qituvchining muhim vazifasi hisoblanib, uning faoliyati ichki anglanilgan motivlar o'quvchilar xulq – atvorini shunchaki boshqarish bilan cheklanmasdan, balki ular shaxsini shakllantirishga, ularda maqsad qo'ya olish, qiziqish uyg'otish va ideallarni tarkib toptirishga qaratilgan bo'ladi.

Amerikalik olim Megrabyanning tadqiqotlariga ko'ra birinchi marotaba bo'lgan suhbatda taassurotlarning ijobiy bo'lishiga gapirgan gaplar 7%, paralingvistik omillar 38%, noverbal harakatlar 58% gacha ta'sir qilarkan Ta'lim berishda asosan diqqat ichki omillarga kiradi. Yuqorida ko'rsatilib o'tilgan omillar esa tashqi hisoblanadi Birinchisi diqqat bilan bog'liq bo'lgan faoliyat o'quvchilarining diqqati o'quv ishiga jiddiy qaratilgandagina o'quv materiallarini to'la anglab va mustahkam o'zlashtirib olinadi. Shu bilan birga ana shu o'zlashtirish jarayonida diqqatning o'zi ham o'sib barqarorlashib boradi. Ta'limning aktivlashtiruvchi turli metodlardan va o'quvchilarining diqqatini aqliy faoliyatga qarata oladigan usullardan ustalik bilan foydalanganda o'quvchilarining barqaror diqqatini saqlab turish mumkin. O'qituvchilarining dars jarayonida qo'llaydigan usullari o'quvchilarining yosh va individual xususiyatlariga mos kelishi lozim. O'qishni o'zlashtirish qiziqishga bog'liq. O'quvchi qiziqishi uchun yaxshi tushunishi kerak. Shuningdek o'zlashtirishda xotira ham katta ahamiyatga ega. Bunda mazmun takrorlash katta rol o'ynaydi. Bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarda ilmiy tushunchalargina emas ko'nikma va malakalar ham xosil qilinadi. Ko'nikma turli yo'llar bilan xosil qilinadi ba'zi ko'nikma taqlid qilish yo'li bilan ba'zi ko'nikma harakatlarini sinab va bajarib ko'rish orqali. Darsda o'qituvchiining e'tibori bir necha o'quvchiga qaratilsa, bu vaqtda qolgan o'quvchilar mustaqil ishlasalar ta'limning bunday shakli individual-guruhli shakl deb ataladi. Zamonaviy ta'lim amaliyotida ko'proq ikki tashkiliy shakl: ommaviy va

individual shakllardan foydalaniladi. Ayni vaqtda guruhli va juftli o‘qish shaklidan amaliyotda ancha keng foydalaniladi.

Ta’limning ommaviy shakli ham, guruhli shakli ham jamoaviy hisoblanmasada, lekin ayrim pedagoglar ularni ommaviy ta’lim deb ko‘rsatishga harakat qiladilar. O‘quv faoliyati motivatsiyasining manbalari mavjud bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi: Ichki manbalar. Ular insonning tug‘ma yoki orttirilgan ehtiyojlari bilan belgilanadi. Ulardan eng muhimi tug‘ma axborot olishga bo‘lgan ehtiyojdir. Orttirilgan ehtiyojlar esa gnostik va ijtimoiy ijobiy ehtiyojlar hisoblanadi. Tashqi manbalar. Ular shaxsning ijtimoiy hayot shart- sharoitlari bilan belgilanadi. Talablar ularning birinchisi bo‘lib, jamiyatning shaxsdan talab qiladigan doimiy xulqatvorini bildiradi. Bog‘cha, maktab, oila boladan juda ko‘p ishlarni amalga oshirishni talab qiladi. Ijtimoiy kutish jamiyatning har birimizdan ma’lum bilimlar, ko‘nikmalar darajasining bo‘lishini, zarurligini kutishini bildiradi. Masalan, bir yoshli bola yurishi kerak, 7 yoshdan u o‘qishi kerak, 15 yoshdan u kasb tanlashi kerak deb hisoblaymiz. Imkoniyatlar - shaxs faoliyatini belgilovchi ob’ektiv shart-sharoitlardir, Masalan, boy kutubxona bolani ko‘p kitob o‘qishga undaydi. O‘quvchilar diqqatini qo‘zg‘atishning asosiy vositalari xilma-xil usullarni qo‘llagan xolda mashg‘ulotlarni dinamik tarzda olib borish, o‘quvchilar aktivligini oshirish, bayon qilishning jonliligi, bir faoliyat turidan ikkinchisiga o‘tishi, diqqatni chalg‘ituvchi qo‘zgovchilarga barham berishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ziyomuxammadov B. «Pedagogik maxorat asoslari», Toshkent «TIB-Kitob» 2009.
2. Ziyomuxammadov B. «Pedagogika», Toshkent 2006.
3. Umarov B.M. O‘quvchilar orasida nizoli vaziyatlarning oldini olishda maktab psixologining vazifalari. //ToshDU psixologiya kafedrasи professor-o‘qituvchilarining ilmiy maqolalari to‘plami. –T: 1994.
4. Алешина Ю. Э. Индивидуальное и семейное психологическое консультирование. М., 1999.
5. Доналд К. Внутренний мир травмы. Екатеринбург, «Деловая книга», 2000. 18, Зиновева Н.О., Михайлова Н.Ф.